

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**

PhD.01/2025.27.12.Ped.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUMINOV OBIDXON NORXUJAYEVICH

**PREZIDENT MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING
PEDAGOGIK STRATEGIYALARI**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences

Muminov Obidxon Norxujayevich Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari.....	3
Муминов Обидхон Норхужаевич Педагогические стратегии повышения качества образования в президентских школах.....	25
Muminov Obidkhon Norkhujayevich Pedagogical strategies for improving the quality of education in presidential schools.....	49
Эълон қилинган ишлар рўйхати Список опубликованных работ List of published works	53
.. .	

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**

PhD.01/2025. 27.12. Ped.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUMINOV OBIDXON NORXUJAYEVICH

**PREZIDENT MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING
PEDAGOGIK STRATEGIYALARI**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped.5277 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) veb-sahifaning www.chirchiq.uz va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalining www.Ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Xilola Uktamovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayev Vohid Tojimamatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Murodov Erkin Ergashevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025. 27.12. Ped.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "___" soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil "___" _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

B.S.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi p.f.d., professor

A.G.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi i.f.n., dotsent

M.X.Baybayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda transformatsiya sharoitida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni rivojlantirishning zamonaviy trendlariga amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta'lim tajribalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan STEAM ta'lim tizimining ham keng joriy etilishi bu borada yuqori natijaga erishishda zamin yaratmoqda. Rivojlangan ta'lim muassasalari dasturiga kiritilgan intellektual-ijodiy qobiliyatni shakllantirishga tizimli yondashuv bugungi kunda aksariyat pedagoglar tomonidan samarali ekanligi alohida e'tirof etilmoqda.

Jahondagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida ijodiy tafakkur, kreativ salohiyatni tarkib toptirishning innovatsion modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan va media ta'lim imkoniyatlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlashtirish, ijodiy faollikni oshirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish yanada dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, o'quvchilarda innovatsion ta'lim sharoitida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish asosida ta'lim jarayonini tizimli tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda iqtidorli o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Muhtaram Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi", degan ezgu g'oya asosida keng ko'lamli ishlarga ustuvorlik berilmoqda hamda iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish¹ muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada Prezident maktablari ta'lim sifatini oshirishning strategik rivojlantirish va boshqarish tendensiyalarini yuksaltirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi hamda o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim sifatini oshirish, SMART-o'qitish modeli va texnologiyasini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2019-yil 20-fevraldagi PQ 4199-son Prezident maktablarini tashkil etish chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi Prezident maktablari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 526-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019-y., 09/19/526/3338-son.

tadbirlari to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi "Prezident maktablari to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" 526-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 141-son "Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston olimlaridan R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov, A.A.Abduqodirov, B.X.Xodjayev, Sh.Q. Mardonov, U.N.Nishonaliyev, M.X.To'xtaxodjayev, N.A.Muslimov, K.K.Olimov, O'.Q.Tolipov, D.J.Yuldashev, N.Matkarimova, Sh.S.Sharipovlar ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari tizimli yondashuv, ta'lim sifatini oshirish va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishni tadqiq etganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan . V.P.Bezduxov, R.N.Buneev, A.M.Novikov, V.A.Slastenin, I.P.Podlasiy, Ye.V.Bondarevskaya, N.D.Nikandrov, V.I.Zagvyazinskiy, B.S. Gershunskiy, A.G.Asmolov, E.F.Zeer, V.D.Shadrikovlar elitar ta'limni zamonaviy pedagogikaning muhim metodologik yo'nalishi sifatida keng qamrovda tadqiq etganlar.

Xorijlik tadqiqotchilar M.Fullan, A.Schleicher, J.Hattie, A.Hargreaves, P.Drucker, H.Mintzberg, J.Kotter, R.Marzano, L.Darling-Hammond, K. Leithwood, D. Hopkins, S. Stoll kabi xorijlik olimlar ta'lim tizimida strategik boshqaruv, liderlik va ta'lim sifatini oshirish masalalarini keng qamrovda tadqiq etganlar.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2022-2025yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiri bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

Prezident maktablarida ta'limni boshqarish va sifatini oshirishning

pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarini joriy etish tizimini tashkil etish;

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarning rivojlantirishning samaradorligi aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari belgilab olingan va tajriba-cinov ishlariga Farg'ona, Andijon va Namangan shahridagi Prezident maktablaridan 6-11-sinflarining jami 432 nafar respondent-o'quvchilari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ijtimoiy-huquqiy bilishning zamonaviy yondashuvlari, tizimli-strukturaviy va funksional tahlil metodlari asosida muammoni o'rganish amalga oshirildi. Shuningdek, pedagogik modellashtirish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tajriba-sinov ishlari, so'rovnoma, kuzatish, suhbat, diagnostik baholash hamda matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi..

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Prezident maktablarida ta'limni boshqarish va sifatini oshirishning pedagogik imkoniyatlari ma'naviy-madaniy taraqqiyot talablarini xalqaro tajribalar AQA, Pearson, OECD faoliyati bilan real hayotiy vaziyatlarga maqsadli uyg'unlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarining adekvatligini monitoring va dinamik tahliliga ko'ra siklli perspektiv baholash asosida aniqlashtirilgan;

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarni joriy etish modeli maqsad-natija komponentlariga strategik boshqaruvning yangi ta'lim pragmatikasini o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyalarini axloqiy qadriyatlarga mos amaliyotga bog'liq integratsiyalash, pedagogik refleksiya va o'z o'zini baholash mezonlarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

halqaro tajribalar asosida Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari tizimi CIS (Council of International Schools) talablarini global fuqarolik, ijtimoiy mas'uliyat va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga rivojlantirishni Cambridge Assessment International Education tizimiga interpretatsiyalash asosida optimallashtirilgan;

halqaro tajribalar asosida Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarni rivojlantirishning samaradorligi akkreditatsiya va monitoring qilishda baholash indikatorlarini Cambridge Assessment International Education tizimi indikatorlariga iyerarxik adaptivlashtirish, o'quvchilarning qiziqishi va baholash jarayonini qo'llab quvvatlovchi innovatsion muhit suratini oshiruvchi geymikasion

texnologiyalari qo'llash asosida oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni rivojlantirishda huquqiy madaniyat, huquqiy qadriyatlar va huquqiy ong muammolariga nisbatan kompleks yondashuvning tashkiliy-metodik hamda texnologik shart-sharoitlari aniqlangan;

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni shakllantirishdagi ustuvor vazifalarni izchil davom ettirish, shuningdek, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida metod va vositalar belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi dissertatsiyada yaxlit va texnologik yondashuvning hal etilganligi; ilmiy tadqiqot ishining maqsadini pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri baholangani, belgilangan vazifalarning tadqiqot yechimini ta'minlashga qaratilgani; tadqiqotning samarali ko'p bosqichli tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil; Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarining rivojlangani hamda yuqori darajaga ega bo'lgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarning shakl, metod va mazmunini aniqlashning yaxlit tizimi ishlab chiqilgani, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirish mezonlari belgilangani va baholash mexanizmi takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni takomillashtirishda ilmiy izlanuvchilar va amaliyotchi pedagoglar uchun ta'lim sifatini o'rganishga xizmat qiluvchi ilmiy-pedagogik metodlar belgilab berilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

Prezident maktablarida ta'limni boshqarish va sifatini oshirishning pedagogik imkoniyatlari ma'naviy-madaniy taraqqiyot talablarini xalqaro tajribalar AQA, Pearson, OECD faoliyati bilan real hayotiy vaziyatlarga maqsadli uyg'unlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarning adekvatligini monitoring va dinamik tahliliga ko'ra siklli perspektiv baholash asosida aniqlashtirishga oid takliflar PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 22-maydagi 11-05-3299/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarining pedagogik refleksiya va o'z-o'zini baholash mezonlarini kiritish asosida pedagogik imkoniyatlari aniqlangan.

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarni joriy etish modeli maqsad-natija komponentlariga strategik boshqaruvning yangi ta'lim pragmatikasini o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyalarini axloqiy qadriyatlarga mos amaliyotga bog'liq integratsiyalash, pedagogik refleksiya va o'z o'zini baholash mezonlarini kiritish asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 22-maydagi 11-05-3299/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarining tarkibiy komponentlari o'zaro muvofiqlashtirilgan.

halqaro tajribalar asosida Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari tizimi CIS (Council of International Schools) talablarini global fuqarolik, ijtimoiy mas'uliyat va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga rivojlantirishni Cambridge Assessment International Education tizimiga interpretatsiyalash asosida optimallashtirishga oid takliflar PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 22-maydagi 11-05-3299/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik holatini o'rganish imkoni yaratilgan.

halqaro tajribalar asosida Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarni rivojlantirishning samaradorligi akkreditatsiya va monitoring qilishda baholash indikatorlarini Cambridge Assessment International Education tizimi indikatorlariga iyerarxik adaptivlashtirish, o'quvchilarning qiziqishi va baholash jarayonini qo'llab quvvatlovchi innovatsion muhit suratini oshiruvchi geymikasion texnologiyalari qo'llash asosida oshirishga oid takliflar PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 22-maydagi 11-05-3299/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarini joriy etish modeli maqsad-natija komponentlariga strategik boshqaruvning yangi ta'lim pragmatikasini o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyalarini axloqiy qadriyatlarga mos amaliyotga bog'liq integratsiyalash va takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami

13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar va ilmiy natijalarni chop etishga mo'ljallangan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida asosan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari muammo sifatida o'rganilib, ushbu faoliyatni tashkil etishdagi yondashuvlar ilmiy-nazariy tahlil qilingan, ushbu maktablarda ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarining boshqaruv strategiyasi bilan tashkiliy tuzilmalarning o'zaro mutanosibliigi, moddiy-texnika bazasi va shart-sharoitlarining mosligi holati bayon qilingan. Bobning birinchi paragrafida Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari bo'yicha ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlil qilinib, boshqaruv tizimidagi asosiy yondashuvlar, operativ va strategik boshqaruv tizimining asosiy hususiyatlari, boshqaruv jarayonining tizimlari aniqlandi.

Prezident maktablarida ta'lim jarayoni yuqori malakali mahalliy va xorijiy pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Xorijiy mutaxassislarni jalb etish belgilangan nizom asosida olib borilib, tanlov jarayonida Kembrij xalqaro o'quv dasturlari asosida darsberish tajribasi, yuqori kasbiy mahorat, ilmiy va axloqiy salohiyat asosiy mezon sifatida belgilangan. Hozirgi kunda Prezident maktablarida jami 522 nafar pedagog faoliyat yuritib, shundan 133 nafari xorijiy mutaxassislarni tashkil etadi. Mahalliy o'qituvchilarning katta qismi oliy va birinchi toifaga ega bo'lib, ularning aksariyati xalqaro sertifikatlariga egaligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 apreldagi PF-55-sonli farmoniga muvofiq, Prezident maktablarida faoliyat olib borayotgan mahalliy pedagoglarga 350 foizgacha bo'lgan ustama joriy etildi. Mazkur ustama Kembrij ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus kurslarni muvaffaqiyatli tamomlash, kamida bir yillik ish tajribasiga ega bo'lish hamda C1 darajadagi chet tili sertifikati mavjudligi sharti asosida belgilanadi. 2026-yil 4-yanvar holatiga, Prezident maktablarida jami 2 330 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. 2021 yildan

buyon 329 nafar bitiruvchi maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, ularning aksariyati nufuzli xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishni davom ettirmoqda. Bitiruvchilarning 80 foizi A-Level hamda SAT xalqaro sertifikatlariga ega bo'lib, bu ularning yuqori akademik natijalarini ko'rsatadi.

Prezident maktablari xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham samarali faoliyat yuritib, Cambridge International, AQA, Pearson Edexcel, Portsmouth University (School Leader Development CCPD-Centre for Continuing Professional Development programme 2023-yil noyabrdan), Nottingham Trent University kabi 30 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. 2023 yilda barcha Prezident maktablari Cambridge International akkreditatsiyasidan o'tib, rasmiy A-Level imtihon markazlariga aylangan bo'lsa, 2024 yildan boshlab SAT va CBT IELTS imtihonlarini o'tkazuvchi rasmiy markazlar sifatida faoliyat yuritmoqda. Prezident maktablari internat shaklida tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilarga bepul umumiy o'rta ta'lim beriladi. Ta'lim jarayoni qat'iy akademik reja asosida tashkil etilib, dars mashg'ulotlari bilan bir qatorda fan, sport, san'at va ijtimoiy loyihalar orqali o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanadi. Mazkur tizimli yondashuv natijasida o'quvchilarda yetakchilik, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlar shakllanib, huquqiy demokratik jamiyat poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biz boshqa davlatlar ta'lim tizimlarini ham chuqur o'rgandik va olib borilgan qiyosiy tahlil natijasida Prezident maktablari modeli milliy qadriyatlar hamda ilg'or xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqilgan, deb xulosa qildik. Ushbu model ta'lim sifati, seleksiya mexanizmi va natijadorlik jihatidan rivojlangan mamlakatlar maktablari bilan teng raqobatlasha olishini ko'rsatdi. 1-jadvalda ushbu taqqoslash keltirilgan:

1-jadval.

Ta'lim sifati, seleksiya mexanizmi va natijadorlik jihatidan rivojlangan mamlakatlar maktablari qiyosiy tahlili

Mezonlar	UZ Prezident maktablari	SG Singapur (NUS High / SST)	KR Janubiy Koreya (Science High Schools)	KZ Qozog'iston (Nazarbayev Intellectual Schools)	GB Angliya (Grammar Schools)
Qabul tizimi	Tanlov asosida (test + iqtidor)	Juda kuchli seleksiya (STEM)	O'ta qat'iy tanlov	Tanlov asosida (IQ + akademik)	11+ imtihon orqali
Ta'lim modeli	Milliy va xalqaro integratsiya	Universitetga yaqinlashtirilgan	Fan va tadqiqotga yo'naltirilgan	Elitar, kompetensiyaviy	Klassik akademik
O'quv dasturi	Cambridge (IGCSE, AS, A-Level)	Maxsus STEM + research	Milliy + ilmiy dasturlar	Milliy + xalqaro (IB, A-Level)	Milliy (GCSE, A-Level)
Baholash tizimi	Cambridge Assessment	Ichki va xalqaro monitoring	Milliy standartlashtirilgan	Xalqaro va milliy baholash	OFQUAL (milliy)*

Mezonlar	UZ Prezident maktablari	SG Singapur (NUS High / SST)	KR Janubiy Koreya (Science High Schools)	KZ Qozog'iston (Nazarbayev Intellectual Schools)	GB Angliya (Grammar Schools)
Asosiy yo'nalish	Liderlik va global kompetensiy a	Ilmiy elita tayyorlash	Fan-texnologiya yetakchilari	Intellektual elita	Akademik mukammallik
Fuqarolik tarbiyasi	Kuchli integratsiya	Ijtimoiy mas'uliyat	Davlat taraqqiyoti markazida	Milliy liderlik	An'anaviy qadriyatlar
Natija	Top universitetlar + lider shaxs	Yuqori ilmiy muhit	Innovator mutaxassislar	Global universitetlarga yo'naltirish	Oksford/Cambrid ge yo'li

Taqqoslovchi tahlil shuni ko'rsatadiki, Prezident maktablari modeli Singapur, Janubiy Koreya, Qozog'iston va Angliya kabi ilg'or ta'lim tizimlarining samarali jihatlarini o'zida uyg'unlashtirgan. Ushbu modelning ustunligi shundaki, u akademik mukammallik bilan bir qatorda liderlik, fuqarolik mas'uliyati va global kompetensiyalarni bir tizimda rivojlantiradi. Shu bois Prezident maktablari O'zbekiston sharoitida xalqaro raqobatbardosh shaxsni tayyorlashning innovatsion va strategik modeli hisoblanadi. Demak Prezident maktablari modeli faqat bilim berishga emas, balki global miqyosda raqobatlasha oladigan, liderlik va fuqarolik mas'uliyatiga ega shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan kompleks modeldir.

Prezident maktablarini tashkil etishning maqsadi - iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat.

Prezident maktablarining maqsad-vazifalari va tamoyillari-Prezident maktablarining asosiy maqsadi – iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularning intellektual, ilmiy hamda ijodiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun zamonaviy ta'lim muhitini yaratishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish doirasida quyidagi vazifalar belgilangan: tabiiy va aniq fanlarni chuqurlashtirilgan asosda o'qitish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida mustahkam bilim va kompetensiyalarni shakllantirish; o'quvchilarning innovatsion g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda ularni amaliyotga yo'naltirish uchun zarur pedagogik va moddiy-texnik shart-sharoitlarni yaratish; o'qitish va baholashning zamonaviy, xalqaro standartlarga mos mexanizmlarini joriy etish, fanlararo integratsiya asosida ta'lim jarayonini tashkil etish hamda ilg'or xorijiy tajribani milliy ta'lim tizimiga adaptatsiya qilish; o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ularda yetakchilik, tanqidiy va tahliliy fikrlash, axborot bilan ishlash hamda bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quvchilarning xalqaro

olimpiada, tanlov va intellektual musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish; yosh avlodda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish; ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida milliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda bitiruvchilarning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida tahsilni davom ettirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Dissertatsiyada ta'kidlangan ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari – bu faqat o'qitish metodlari emas, balki maqsadli boshqaruv, baholash, innovatsiyalar, ijtimoiy muhit va shaxsiy rivojlanish elementlarini o'z ichiga olgan kompleks tizimdir, ya'ni har tomonlama barkamo; shaxsni tarbiyalay olish mexanizmlari majmuasidir.

Dissertatsiyaning **“Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalari amalga oshirish yo'llari” deb nomlangan ikkinchi bobida** hozirgi zamon ta'lim sohasidagi asosiy yo'nalishlar, Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik va konstruktiv imkoniyatlari alohida jihat hisoblanib, ushbu maktablarda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida bayon etilgan.

Hozirgi kunda Prezident maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri, ma'naviy dunyoqarashi hamda ijtimoiy faolligining izchil rivojlanib borishi mazkur ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan pedagogik siyosatning muhim natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu maktablarda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etib, erishilayotgan yutuqlar zahirida inson omilining hal qiluvchi o'rne yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, Prezident maktablari o'quvchilari xalqaro olimpiadalar va tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda. Shuningdek, bitiruvchilarning dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalariga 100 foizlik to'liq grantlar asosida qabul qilinish ko'rsatkichlari yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, Farg'ona shahridagi Prezident maktabi misolida 2023 yilda 5 nafar, 2024 yilda 9 nafar, 2025 yilda esa 12 nafar o'quvchi to'liq grantga ega bo'ldi. 2025 yilgi early decision natijalariga ko'ra, 3 nafar o'quvchi: Sobirova Dilafuz Salohiddin qizi – Harvard University'ning Integrative Biology yo'nalishi bo'yicha 392 000 AQSH dollari miqdoridagi to'liq grant bilan, No'monov Samandar Olimjon o'g'li – AQSHning TOP-30 Liberal Arts Colleges ro'yxatiga kiruvchi Lafayette College'ga to'liq grant asosida hamda Abdubannonov Abdurashid Abdulhakimovich – City University of Hong Kong (TOP-63) universitetiga to'liq grant asosida qabul qilindi.

Ushbu yutuqlarning ilmiy-pedagogik asoslarini aniqlash va Prezident maktablarini “lokomotiv maktab” sifatida boshqa umumta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etish maqsadida, Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan pedagogik hamda konstruktiv imkoniyatlarni ilmiy

asosda tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Prezident maktablari ta'lim modelida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi rasional metodik yondashuvlardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Mazkur yondashuvlar ta'limni insonparvarlashtirish tamoyiliga asoslanib, ijodiy imkoniyatlarni yuksaltirish jarayonida umumbashariy va milliy qadriyatlardan kompleks foydalanishni nazarda tutadi. Prezident maktablarida qadriyatlar tizimi yuqori ma'naviyatli, global tafakkurli va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida qaraladi.

Qadriyatlarga tayangan holda tashkil etilgan pedagogik hamkorlik Prezident maktablarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda hamkorlikka asoslangan faoliyat orqali o'z ifodasini topadi. Bunday yondashuv burch hissi, mas'uliyat, mehnatsevarlik va intizom kabi pedagogik qadriyatlarning aksilogik mohiyatini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. O'quvchilarning kasbiy yo'naltirilgan qobiliyatlari hamda kasbiy-texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, maktablarda darsdan keyin tashkil etilgan noakademik to'garaklar (robototexnika, start-up, web-design) aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Prezident maktablarida ta'lim mazmuni va metodlari o'quvchilarning individual qiziqishlari, hayotiy va kasbiy ehtiyojlari, hissiy holati hamda shaxsiy tajribasiga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv doirasida o'qituvchi bilimlarni faqat yetkazuvchi emas, balki o'quvchilarni mustaqil izlanishga undab, bilishga qiziqishni shakllantiruvchi hamkor sifatida namoyon bo'ladi.

Bu holat Prezident maktablarida amalga oshirilayotgan kollaborativ loyihalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, fanlararo, jamoaviy va loyiha asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyati o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda muammolarni jamoaviy hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Empirik tadqiqotlar davomida olingan kuzatuv va so'rovnoma natijalari kollaborativ loyihalarda faol ishtirok etgan o'quvchilarda mas'uliyat hissi, liderlik sifatleri va kommunikativ kompetensiyalarning sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Ayniqsa, bu "Global Perspective" fanidan bajarilayotgan topshiriqlar misolida yaqqol kuzatildi.

Aqlga tayanuvchi usullardan biri ta'limning mazmunini va uslublarining o'quvchilarga, uning hayotiy va kasbiy qiziqishlari hamda ehtiyojlariga, uning hissiyotlari va shaxsiy hayotiy tajribasiga yo'naltirilganligi hisoblanadi. Uning mohiyati o'qituvchi nafaqat ma'lumotni bayon etishi kerakligi, balki mazkur bilimlar sohasiga qiziqishni uyg'otishni bilishi, shu tariqa ta'lim oluvchi bilan hamkorlikda ishlash metodini topishi kerakligidan iborat. Uni qo'llashdan maqsad ta'lim-tarbiya mazmuni va metodlarini insonparvarlashtirish hisoblanadi.

Faol, ijodiy mutaxassisni tarbiyalash uchun faol, ijodiy o'qitish jarayonini

tashkil etish zarur. Prezident maktablarini ijodiy bilishga oid jarayonlarini ilmiy asoslash bilishga bog'liq intilishlari va yangi ilmlarni egallashning maxsus mexanizmlarisiz kutilgan maqsadlarga erishish qiyin.

Prezident maktablarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlar tizimi doirasida ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan Eco School dasturi va "Yashil bayroq" tashabbuslari o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyat, barqaror rivojlanish g'oyalariga sodiqlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishda samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu loyihalar orqali o'quvchilar ekologik muammolarni anglash, innovasion yechimlar ishlab chiqish va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini egallaydilar.

Empirik tadqiqotlar (432 nafar o'quvchi) natijalariga ko'ra, mazkur tashabbuslarda faol ishtirok etgan o'quvchilarda ekologik tafakkur, ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlik kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlangani aniqlandi. Bu esa Prezident maktablarida ta'lim va tarbiya uyg'unligi asosida ekologik madaniyatni shakllantirish CIS (Council of International Schools) akkreditatsiyasi talablariga mos keluvchi samarali pedagogik model ekanini tasdiqlaydi.

Farzandlarimiz nafaqat milliy qadriyatlar, balki umuminsoniy fazilatlar bilan tarbiyalash esa ularning kelajakdagi xalqaro munosabatlarda muhim rol tutadi va global fuqarolik tushunchasi yuzaga keladi. Global fuqarolik - bu shaxslar global hamjamiyatning a'zosi ekanligi va o'zlarining milliy yoki mahalliy chegaralaridan tashqarida kattaroq, o'zaro bog'langan dunyoga tegishlilik tuyg'usiga ega ekanligi haqidagi g'oyani anglatadi. Global fuqarolik ko'pincha barcha odamlar va sayyoramiz farovonligi uchun umumiy mas'uliyat hissini uyg'otish orqali yanada tinch va barqaror dunyoni targ'ib qilish usuli sifatida qaraladi. U shaxslarni milliy chegaralardan tashqarida fikrlashga va umumiy insoniyat manfaatini targ'ib qiluvchi yo'llar bilan harakat qilishga undaydi.

Prezident maktablarida joriy etilgan hamkorlikka asoslangan pedagogik strategiyalar, kompetensiyaviy va reflektiv baholash yondashuvlari o'quvchilarning bilim saviyasi bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy-ma'naviy faolligini ham oshirishga xizmat qilmoqda. 2024–2025 o'quv yillarida o'tkazilgan monitoring natijalari o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarida barqaror o'sish, jamoaviy loyihalar orqali tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi hamda tarbiyaviy tadbirlarga jalb etilgan o'quvchilar ulushining oshganini tasdiqladi.

Shuningdek, Prezident maktablarida baholashning reflektiv modeli V.P.Bezduxov tomonidan ilgari surilgan pedagogik baholashning axloqiy mohiyatiga oid qarashlar bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda. Baholash o'quvchi uchun faqat natijani qayd etuvchi vosita emas, balki o'z faoliyatini anglash, mas'uliyatni his etish va axloqiy xulosa chiqarish mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Prezident maktablari misolida olib borilgan amaliyot shuni isbotlaydiki,

ilmiy asoslangan pedagogik strategiyalar, davlat ta'lim siyosati va Prezident tashabbuslari bilan uyg'unlashgan holda, yoshlarni ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashda muhim pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, davlat talablari → Prezident maktablari amaliyoti → tadqiqot natijalari zanjiri orqali xulosa qilish mumkinki, Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirish nafaqat bilim berish bilan cheklanmay, balki huquqiy, madaniy va ma'naviy kompetensiyalarini shakllantirish orqali yoshlarni global fuqarolar sifatida tarbiyalash bilan bog'liq. Bu jarayonda oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi samarali hamkorlik yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy va fuqarolik jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik va konstruktiv imkoniyatlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maktablarda ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilarda fuqarolik jamiyati qadriyatlarini, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy-axloqiy yetuklikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovasion strategiyalarni joriy etish o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini izchil rivojlantirishni ta'minlaydi.

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarining rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Bunda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyun, 526-sonli "Prezident maktablari to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik strategiyalarining rivojlantirish modeli ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy rol bajarib va bu o'z navbatida jamoaviy yondashuv hamda belgilangan maqsad va vazifalarni izchillik bilan amalga oshirishni taqozo etadi. Ushbu model bir necha jihatdan e'tiborga loyiq: ta'lim jarayoni o'quvchilarning individual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etiladi; zamonaviy innovasion metodlar va interaktiv texnologiyalar tatbiq etilib, ta'lim jarayonining samaradorligi oshiriladi; fuqarolik, madaniy va axloqiy qadriyatlar ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilinadi, bu esa o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va madaniy ongini shakllantirishga xizmat qiladi; ta'lim sifatini baholash va strategiyalarni takomillashtirish uchun tizimli monitoring mexanizmlari joriy etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyun, 526-sonli "Prezident maktablari to'g'risida nizomni tasdiqlash" qarorida ta'kidlanganidek, Prezident maktablarida ta'lim jarayoni umumiy o'rta ta'lim davlat standartlari va xalqaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi, bitiruvchilarga davlat va xalqaro namunadgi diplomlar beriladi, tanlangan fanlar asosida xalqaro imtihonlar topshirish huquqi mavjud.

Tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandiki, Prezident maktablarida ta'lim sifatiga erishish uchun avvalo o'quvchilar ilmiy bilimlarni egallashi, so'ngra ularni qadriyatlar tizimi orqali shakllantirishi va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Qadriyatlar motivatsion tizimi shaxs faoliyatini erkin fuqarolik

jamiyatini barpo etishga yo'naltiruvchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, Prezident maktablarida loyiha faoliyati, ijtimoiy tashabbuslar va fanlararo integratsiyaga asoslangan ta'lim orqali o'quvchilarning fuqarolik kompetensiyasi, yetakchilik salohiyati va ijtimoiy mas'uliyati izchil rivojlanmoqda. Mazkur model o'quvchilarning fuqarolik bilimlari, dunyoqarashi va axloqiy me'yorlarni to'g'ri baholash qobiliyatlari bilan ajralib turadi

Dissertatsiyada Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirishga qaratilgan yaxlit, tizimli va bosqichma-bosqich pedagogik jarayon sifatida ishlab chiqilgan. Ushbu model ta'lim sifatini oshirish orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirish, fuqarolik ongi va dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Modelning metodologik asosini kompetentli, akmeologik va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida kompetentlikka yo'nalganlik, o'quvchilarning individual qobiliyat darajasi asosiy omil sifatida belgilanib, insonparvarlik, fundamentallik, idrok qilish va natijaviylik tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Bizning modelimizda ta'lim sifatini oshirishning didaktik ta'minoti shakl, metod, vosita va mazmunning uzviy birligi asosida amalga oshiriladi. Jumladan, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, faol va interfaol o'qitish metodlari, audiovizual hamda raqamli ta'lim vositalari, xalqaro tajribaga asoslangan maxsus kurslar ta'lim jarayoniga integratsiya qilingan.

Model ta'lim sifatini oshirishning tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi bosqichlarini qamrab oladi hamda Smart texnologiyalar, case-study, o'quv loyihalari va o'yin texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Rivojlanish samaradorligi kognitiv, empirik va kreativ mezonlar asosida baholanib, ular orqali o'quvchilarda muammoli fikrlash, ijodiy faollik va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Prezident maktablarida ta'lim sifati va pedagogik strategiyalarni rivojlantirish modeli nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu model orqali o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik va axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Fuqaro tarbiyasi jarayoni faqat huquqiy bilimlar bilan cheklanmay, balki milliy va diniy qadriyatlar, tarixiy an'ana va urf-odatlar bilan uyg'unlashgan bilimlar kompleksini ham o'z ichiga oladi.

Prezident maktablari tajribasi shuni ko'rsatadiki: Motivasion-qadriyatli komponent o'quvchilarning fuqarolik xulqi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi: Hamkorlikka asoslangan pedagogik strategiyalar orqali o'quvchilar loyihaviy faoliyat, debat va ijtimoiy tashabbuslar orqali amaliy kompetensiyalar egallaydi: Refleksiv baholash mexanizmlari o'quvchilarda axloqiy tanlov va mas'uliyatni rivojlantirib, ularni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladi. Milliy qadriyatlar bilan

uyg'unlashgan ta'lim shaxsning ma'naviy barqarorligi va fuqarolik ongini mustahkamlaydi. Prezident maktablarida motivasion-qadriyatli pedagogik strategiyalarni kengaytirish va barcha fanlarga integratsiyalash, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim mazmuniga uyg'unlashtirish orqali yuqori natijalarga erishiladi.

Maqsad: Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirish orqali o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish, dunyoqarashini kengaytirish; o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy iftixor va umuminsoniy qadr-qimmat tuyg'ularini shakllantirish

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirish

Yondashuvlar: komponentli, akmeologik, faoliyatli

Omillar: kompetentlik yo'nalganlik tipi, qobiliyat darajasi

Tamoyillar: insonparvarlik, fundamentallik, idrok qilish, natijalarda yaxlitlik

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirishning didaktik ta'minoti

Shakl: ma'ruza, amaliyot, fakultativ darslar

Metod: passiv, faol va interfaol metodlar, o'quvchi

Vosita: matnli, tasvirli, audiovizual, yordamchi, modeli

Mazmun: malaka talablari, me'yoriy hujjatlar, maxsus kurs, ...

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirish bosqichlari:
1. Tayyorgarlik 2. Asosiy 3. Yakunlovchi

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirish jarayonida zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari: Smart, Case-study, o'quv loyiha, o'yin

RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

kognitiv – shaxsga yo'naltirilgan; majmuaviy, innovatsion, muammoli, interfaol, refleksiv hamda kompetentli vondashuv

empirik – Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirish orqali muloqotni amalga oshira olish

kreativ-Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirishga oid muammoli vaziyatlarni hal qila bilish

Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishning rivojlanganlik darajasi

Yuqori

O'rta

Quyi

N A T I J A : Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni rivojlantirish orqali intellektual jihatdan o'sishini ta'minlash; o'quvchilar xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga erishish; axloqiy fazilatlarini kamol toptirish. O'quvchilarning fuqarolik bilimini o'stirish. dunyoqarashini shakllantirish, axloqiy tushunchalarni to'g'ri baholash, jamiyatning huquqiy muammolariga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish

2-jadval .Prezident maktablarida ta'lim sifati va pedagogik strategiyalarni rivojlantirish modeli

Shunday qilib, Prezident maktablaridagi pedagogik strategiyalarni rivojlantirish modeli ta'lim sifatini oshirish, barqaror fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish va o'quvchilarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi.

Pedagogik strategiyalarni boshqarish tizimi hamda fuqarolik targ'ibot resurslaridan samarali foydalanish strategiyalarini boshqarish bo'yicha o'rganildi va pedagogik strategiyalarni boshqarish tizimini asoslashda shaxs erkinligi va pedagogik zarurat uyg'unligini metodologik nuqtai nazardan izohlash muhimdir. I. Kantning fikriga ko'ra, erkinlik – shaxsning axloqiy tanlovi bilan, zarurat esa hodisalar rivojining obyektiv qonuniyatlari bilan bog'liqdir. Shu yo'l bilan Prezident maktablarida pedagogik boshqaruvning mohiyati belgilab beriladi va o'qituvchi hamda rahbarning strategik qarorlari axloqiy mas'uliyat va tizimli talablar uyg'unligida amalga oshirilishi talab etiladi.

Pedagogik strategiyalarni boshqarishda jamiyat konsolidatsiyasi g'oyasiga sodiqlik tamoyili muhim boshqaruv mezonini sifatida asoslanadi. L.V. Vershinina tomonidan ishlab chiqilgan sodiqlik tamoyiliga tayanadigan holda, pedagogik boshqaruv tizimida "pedagogik faoliyatning aksiologik muhiti" tushunchasi "jamiyat konsolidatsiyasi g'oyasiga sodiqlik" mazmuni bilan boyitildi. Bu esa Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishni ijtimoiy buyurtma va davlat strategiyasi bilan uyg'un holda boshqarish imkonini beradi.

Pedagogik boshqaruvda maqsadni belgilash masalasi axloqiylik bilan uzviy bog'liq. S.V.Pupkovning fikriga ko'ra, axloqda maqsadni belgilash sub'yekterlararo munosabatlarga xos bo'lsa, axloqiylikda maqsadni belgilash shaxsning ichki axloqiy dunyosi ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan, Prezident maktablarida pedagogik strategiyalarni boshqarish jarayoni o'qituvchining nafaqat tashkiliy, balki axloqiy maqsadlarni ham reflektiv tarzda belgilashini talab qiladi.

Pedagogik boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida vijdonlilikni targ'ib qilish tamoyili alohida ahamiyatga ega. Ya.L. Milner-Irinin talqiniga ko'ra, vijdon rostgoyolikka asoslangan haqiqiy insoniylik mezonini hisoblanadi. Ushbu yondashuv pedagogik boshqaruvda nazorat va baholash jarayonlarini faqat tashqi mexanizm sifatida emas, balki o'quvchilarda ichki axloqiy regulyatorni shakllantirish vositasi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Demak, Prezident maktablarida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni boshqarish tizimi erkinlik va zarurat, sodiqlik va maqsadga yo'naltirilganlik, vijdonlilik va refleksiya tamoyillariga asoslanib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim boshqaruv mexanizmi sifatida ilmiy jihatdan asoslandi. Prezident maktablarida ta'lim sifatini

